

6/2024,  
noyabr-  
dekabr  
(№ 00074)



## **MONETAR SIYOSAT INSTRUMENTLARI ORQALI TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISH YO‘LLARI**

**Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li**

*TDIU-Krems AFU xalqaro qo‘shma ta‘lim dasturi fakulteti dekan o‘rinbosari,  
TDIU IMC Krems Transmilliy dasturlari kafedrasida mustaqil izlanuvchisi*

**E-mail:** [sulaymanovsamandarboy@gmail.com](mailto:sulaymanovsamandarboy@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss6/625](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/625)

### **Annotatsiya**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va likvidlik boshqaruvini takomillashtirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishidir. Bu jarayonda Markaziy bank monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidligini tartibga soladi. Maqolada monetar siyosat instrumentlarining samaradorligi va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda monetar siyosatni liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari foiz stavkalari, majburiy zaxiralar va ochiq bozor operatsiyalarining tijorat banklari likvidliligiga ta‘sirini o‘rganish bilan birga, ilg‘or xalqaro tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholaydi. Markaziy bankning samarali monetar siyosati inflyatsiyani nazorat qilish, valyuta kursini barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** bank likvidligi, monetar siyosat, inflyatsiya, moliyaviy barqarorlik, kredit, pul massasi, foiz stavkasi, xususi sektor.

### **Abstract**

Ensuring the financial stability of commercial banks and improving liquidity management are key aspects of any country’s economic policy. In this process, the central bank regulates the liquidity of commercial banks through monetary policy instruments. This article analyzes the effectiveness of monetary policy instruments and explores directions for their improvement. It examines the measures undertaken to modernize Uzbekistan’s banking system, strengthen financial stability, and liberalize monetary policy. The research findings assess the impact of interest rates, reserve requirements, and open market operations on the liquidity of commercial banks, while also evaluating the applicability of advanced international practices to Uzbekistan’s context. An effective monetary policy by the central bank plays a crucial role in controlling inflation, stabilizing the exchange rate, and stimulating economic growth.

**Keywords:** bank liquidity, monetary policy, inflation, financial stability, credit, money supply, interest rate, private sector.

### **Аннотация**

Обеспечение финансовой стабильности коммерческих банков и совершенствование управления ликвидностью являются ключевыми аспектами экономической политики любого государства. В этом процессе центральный банк регулирует ликвидность коммерческих банков с помощью инструментов монетарной политики. В данной статье анализируется эффективность инструментов монетарной политики и рассматриваются направления их совершенствования. Исследуются меры, предпринимаемые для модернизации банковской

системы Узбекистана, укрепления финансовой стабильности и либерализации монетарной политики. Результаты исследования оценивают влияние процентных ставок, обязательных резервов и операций на открытом рынке на ликвидность коммерческих банков, а также изучают применимость передового международного опыта в условиях Узбекистана. Эффективная монетарная политика центрального банка играет решающую роль в контроле инфляции, стабилизации обменного курса и стимулировании экономического роста.

**Ключевые слова:** ликвидность банков, монетарная политика, инфляция, финансовая стабильность, кредит, денежная масса, процентная ставка, частный сектор.

### **Introduction (Kirish)**

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ularning likvidlik boshqaruvini takomillashtirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pul-kredit siyosati doirasida tijorat banklari likvidligini tartibga solish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bunda monetar siyosat instrumentlarining o'rnini beqiyosdir. Xalqaro tajribaga ko'ra, Markaziy banklar ochiq bozor operatsiyalari, zaxira talablarini boshqarish, qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash va banklararo bozor faolligini oshirish orqali tijorat banklari likvidligini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ham oxirgi yillarda bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va monetar siyosatni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni asosida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bank tizimining mustahkamligini oshirish va pul-kredit siyosatini yanada liberallashtirish choralari ko'rildi.

Shuningdek, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida bank tizimini raqamlashtirish va elektron moliyaviy xizmatlarni kengaytirish belgilangan. Bu esa, tijorat banklari likvidligini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beruvchi yangi texnologik vositalarni joriy qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo'yicha monetar siyosat instrumentlarining samaradorligi va ularni takomillashtirish yo'nalishlari o'rganiladi.

### **Methodology (Metodologiya)**

Monetar siyosat tijorat banklari likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu siyosat iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatish, bank tizimi barqarorligini saqlash va kredit bozori mexanizmlarini tartibga solish kabi jihatlarni qamrab oladi. Jahon va mahalliy iqtisodchi olimlar ushbu masalani keng o'rganib, monetar siyosatning samaradorligini baholash bo'yicha turli nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari surishgan.

J.M. Keynes, M. Friedman, J. Tobin, R.A. Mundell kabi olimlar monetar siyosatning nazariy asoslarini yaratgan bo'lib, ular Markaziy banklar faoliyatining bank likvidligiga ta'sirini tahlil qilishgan. Ayniqsa, J.M. Keynesning likvidlik preferensiyasi nazariyasi tijorat banklari uchun likvidlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. B.Bernanke va M.Gertler tadqiqotlari esa pul-kredit siyosatining iqtisodiy sikllarga ta'sirini baholash bo'yicha ilg'or yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Tijorat banklarining likvidlik darajasini ta'minlashda foiz siyosati, ochiq bozor operatsiyalari va rezerv talablari kabi monetar siyosat instrumentlari asosiy vositalar hisoblanadi. J.E. Stiglitz, A.S. Blinder, Y. Altunbas kabi olimlar ushbu vositalarning bank

tizimidagi o‘rnini tadqiq qilgan. J.B. Taylor esa foiz stavkalarini belgilash bo‘yicha Taylor qoidasi orqali Markaziy bank siyosatining samaradorligini asoslagan.

Rossiya iqtisodiy maktabi vakillari S.R. Moisyev, D.I. Kondratov, YE.A. Leonteva kabi olimlar Rossiya bank tizimining barqarorligini oshirish va Markaziy bankning monetar siyosatdagi rolini o‘rganishgan. O‘zbekistonda esa T. Qoraliyev, N. Jumayev, A.U. Burxonov, O. Namozov, T. Boboqulov kabi olimlar tijorat banklari likvidliligi va monetar siyosat bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

### **Tadqiqot Metodologiyasi**

Tadqiqot O‘zbekiston sharoitida tijorat banklari likvidliligini boshqarish va Markaziy bank monetar siyosatining ta‘sirini baholashga qaratilgan. Jahon tajribasiga asoslangan holda, bank tizimi barqarorligini oshirish va monetar instrumentlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalar O‘zbekiston bank sektorining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, tijorat banklari likvidliligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### **Results (Natijalar)**

Monetar siyosat instrumentlaridan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya bosqichida iqtisodiy sub‘ektlar tomonidan tijorat banklari kreditlaridan foydalanishni oshirish va tijorat banklarining likvidligini yuqori darajada saqlash uchun muhimdir.

Shuningdek, Markaziy bank muomaladagi pul massasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va sezilarli ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega, bu esa respublikamiz Markaziy bank monetar siyosati instrumentlaridan foydalanish orqali majburiy zaxira siyosatidan faol tarzda foydalanmoqda.

Banklarning likvidliligini boshqarishda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar tijorat banklarining faoliyatiga yomon ta‘sir ko‘rsatib va mamlakat bank tizimi darajasining salbiyligini ham ifodalaydi. Natijada esa, bank tomonidan mijoz va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatni bajara olmaslik nafaqat mazkur bankka bo‘lgan ishonchni, umumiy bank tizimiga bo‘lgan ishonchni ham pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda “iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega”<sup>1</sup> bo‘lib, aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirish tijorat banklarimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, tijorat bankining majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olishi jamoatchilikning unga bo‘lgan ishonchini oshiradi va bu yangi depozitlarni jalb qilish qator imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Shu boisdan ham, qisqa muddatli likvidlikka bo‘lgan talabni qondirish va yuqori foyda olish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bank boshqaruvi oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalardan sanaladi. Ayni paytda, yetarli likvidlikni ta‘minlash zaruriyati foyda olishga bo‘lgan intilishni ham muvozanatda ushlab turishi lozim.

Bank menejmenti orqali doimiy likvidlik darajasini ta‘minlash, o‘z navbatida, aktivlar sifati va tarkibi, passivlar tarkibi, kapitalning yetariligi, foiz stavkalarini o‘zgarishi riskidan himoyalash, foiz stavkalarini o‘zgarishiga moyil bo‘lgan aktivlar va passivlarning muvofiqligini ta‘minlash, valyuta pozitsiyasini samarali boshqarish, bank qarzdorlarining moliyaviy holati kabilarga bog‘liq.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018y. <http://prezident.uz/uz/lists/view/1371>

Markaziy bank iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, foiz stavkalarini belgilash va iqtisodiyotdagi pul massasini boshqarish uchun monetar siyosatdan foydalanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun ular boshqa moliyaviy instrumentlardan ham foydalanadilar. Shuningdek, monetar siyosatning iqtisodiy o‘shisdagi ahamiyati katta bo‘lib, quyidagi usullarda namoyon bo‘ladi:

- monetar siyosat orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin (iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish). Ekspansion monetar siyosat yuritish pul taklifini oshirish va foiz stavkalarini pasaytirish orqali kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa investitsiyalar va iste‘molni rag‘batlantiradi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarishni oshirish va iqtisodiy o‘shishga turtki beradi.

- iqtisodiy o‘shishda barqarorlikni saqlash uchun narxlarning ortiqcha o‘shishi (inflyatsiya)ni nazorat qilish zarur (inflatsiyani boshqarish). Restriktiv monetar siyosat yuritish pul taklifini cheklash va foiz stavkalarini oshirish orqali ortiqcha talabni pasaytirib, inflatsiya darajasini barqarorlashtiradi. Bu, uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish uchun qulay sharoit yaratadi.

- monetar siyosat iqtisodiyotda ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi (ishsizlikni kamaytirish). Foiz stavkalarining pasayishi ishlab chiqaruvchi korxonalarni ko‘proq kredit olishga undaydi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytiradi va ish o‘rinlarining ko‘payishiga olib keladi. Iste‘mol talabining oshishi natijasida xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarida ish o‘rinlari yaratiladi.

- monetar siyosat orqali moliyaviy tizimning barqarorligi ta‘minlanadi (moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash). Kredit bozoridagi haddan tashqari o‘zgaruvchanlikni nazorat qilish moliyaviy muassasalar uchun pul oqimini tartibga solish orqali moliyaviy inqirozlarning oldini oladi.

- markaziy bank tomonidan olib boriladigan monetar siyosat milliy valyutaning kursini boshqarishda muhim vositadir (valyuta kurslarini boshqarish). Zarur hollarda, eksportni rag‘batlantirish uchun milliy valyutaning qiymatini pasaytirish, import va eksportning muvozanatini saqlash orqali iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishi mumkin.


- monetar siyosat investitsiya muhitiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi (Investitsiyalarni rag‘batlantirish). Past foiz stavkalari xususiy sektorni yangi loyihalarni boshlashga undaydi. Pul-kredit siyosati ishonchli bo‘lsa, xususiy investorlarning iqtisodiy faollikka bo‘lgan ishonchi oshadi.

- monetar siyosat iqtisodiyotdagi yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatni tartibga solishga yordam beradi (yalpi talab va yalpi taklif muvozanatini saqlash). Pul-kredit shartlarini tartibga solish orqali ortiqcha talabni yoki yetarli bo‘lmagan talabni boshqaradi. Iqtisodiyotda resurslarning optimal taqsimlanishini ta‘minlaydi.

- monetar siyosat iqtisodiy davrlarni yumshatish uchun ishlatiladi (iqtisodiy davrlarni boshqarish). Resessiya davrida pul taklifini oshirish va foiz stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, o‘shishning ortiqcha tezlashishi davrida pul taklifini cheklash va foiz stavkalarini oshirish orqali iqtisodiy “qizib ketish”ni oldini olish mumkin.

Monetar siyosat iqtisodiy o‘shishni barqaror va uzoq muddatli ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri olib borilgan monetar siyosat tijorat banklari likvidligini oshiradi, ishsizlikni kamaytirib muommoli kreditlar foizini kamayishiga asos bo‘ladi. Shunday qilib, monetar siyosat davlat iqtisodiy strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, iqtisodiyotdagi turli omillarni boshqarish orqali iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonning keng ma’nodagi pul massasi (M2)ning vaqt davomida o‘shishi ko‘rsatilgan. Pul massasi izchil o‘shish sur‘atini ko‘rsatib, iqtisodiyotdagi likvidlikning oshayotganini aks ettiradi. Bu iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi omil bo‘lishi mumkin, ammo inflatsiya xavfini keltirib chiqarishi ehtimoli ham mavjud.




**1-rasm. O‘zbekistonning keng ma’nodagi pul massasi (M2) hajmi (mlrd. so‘mda)<sup>2</sup>**

Yuqoridagi rasmda “M2” pul agregatining asosiy komponentlari ulushlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilgan. M0 (naqd pullar) ulushining pasayib borishi iqtisodiyotda naqd rivojlanayotganligini va bank tizimiga bo‘lgan ishonchning ortganligini ko‘rsatadi. O‘z o‘zidan, tijorat banklari likvidligi oshib borayotganligini bildiradi. Talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi yuqori darajada ekanligi, iqtisodiyotning qisqa muddatli likvidlik ehtiyojlariga javob berayotganini ko‘rsatmoqda. Boshqa depozitlar ulushi o‘shishi uzoq muddatli jamg‘armalarning oshayotganini tavsiflaydi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Chet el valyutasi depozitlari ulushining yuqoriligi valyuta kursiga va tashqi savdo siyosatiga bog‘liq.

Pul massasining YalMga nisbati iqtisodiyotdagi likvidlik darajasini ifodalaydi.

Bu ko‘rsatkichning barqaror yoki oshuvchi tendensiyasi iqtisodiyotdagi likvidlikning ortib borayotganini bildiradi. 1-rasmda ko‘rinib turibdiki, M2 ning YalMga nisbati izchil o‘shib bormoqda.



**2-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida pul massasi tarkibi (jamiga nisbatan, % da)<sup>3</sup>**

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)


<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

Bu iqtisodiy faollikning pul massasi bilan ta’minlanganligini ko’rsatadi. Ammo bu tendensiya inflatsiya xavfini oshirishi mumkin, chunki pul massasining YalMga nisbatan o’sishi narxlar barqarorligiga ta’sir ko’rsatadi.

Pul aylanish tezligi iqtisodiy faollikni ko’rsatadi va YalMning M2ga nisbatan qanchalik tez aylanishini ifodalaydi. Aylanish tezligining pasayishi iqtisodiyotda pulning aylanish muddati uzayganini va likvidlikni oshirayotganini ko’rsatadi. Bu O’zbekiston iqtisodiyotida tezlik pasayib borayotganini ko’ramiz, bu iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli investitsiyalarning ortganligini ifodalaydi.

Tezlikni ortiqcha pasayishi esa iqtisodiy faollikni susayishiga olib kelishi mumkin.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati tashqi iqtisodiy sharoitlarning o’zgarishi, milliy iqtisodiyotda olib borilayotgan tarkibiy islohotlarning ko’lami hamda inflyatsion jarayonlarning sekinlashishi fonida nisbatan qat’iy darajada shakllanib, “nisbatan qat’iy” pul-kredit sharoitlari barqaror saqlanmoqda.



**3-rasm. O’zbekistonda iqtisodiyotida pul massasining YalMga nisbati (koeffitsiyentda)<sup>4</sup>**

Tadqiqot natijalari O’zbekistonda monetar siyosat instrumentlaridan samarali foydalanish orqali tijorat banklari likvidligi darajasini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo’naltirilgan. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

*Monetar siyosat instrumentlari tizimlashtirildi* Ilmiy tahlillar natijasida mutaxassis olimlarning monetar siyosatga doir yondashuvlari umumlashtirildi va mustaqil mualliflik konsepsiyasi ishlab chiqildi.

*Tijorat banklari likvidligini oshirish mexanizmlari takomillashtirildi* Monetar siyosat vositalaridan foydalanish bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ayniqsa, foiz stavkalari, majburiy zaxiralar siyosati va ochiq bozor operatsiyalarining tijorat banklari likvidligiga ta’siri chuqur o’rganildi.

*Xorijiy tajriba o’rganildi* AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarda monetar siyosatning rivojlanish tendensiyalari o’rganilib, ularning O’zbekiston sharoitida qo’llanilishi bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

*Makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilindi* Monetar siyosat vositalari orqali iqtisodiyotga ta’sir qilish mexanizmlari tahlil qilinib, ularning yalpi talab va taklif muvozanatiga, inflyatsiyaga va investitsion faollikka ta’siri baholandi.

*Ochiq bozor operatsiyalari qo’mitasi (OBOQ) tashkil etish taklif qilindi* Markaziy bank tarkibida OBOQni tashkil etish orqali hisob stavkalarini belgilash, majburiy zaxira talablarini shakllantirish va bank tizimining likvidligini boshqarish jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqildi.

O’zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi muammolar mavjudligi aniqlangan:

*Monetar siyosat instrumentlarining yetarlicha samarador ishlamasligi* Bank tizimida ochiq bozor operatsiyalari va majburiy zaxira talablari kabi vositalardan yetarlicha foydalanilmasligi tijorat banklarining likvidligi va kreditlash faolligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

*Xorijiy tajriba yetarli darajada qo’llanilmayotganligi* Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilg’or tajribalaridan yetarlicha foydalanilmayotgani, ayniqsa, Markaziy bank faoliyatida Ochiq bozor operatsiyalari qo’mitasining mavjud emasligi pul-kredit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri bo’lib qolmoqda.

*Tijorat banklarining likvidligi bo’yicha yetarlicha mexanizmlar yo’qligi* Tijorat banklarining likvidligini boshqarishda Markaziy bank tomonidan yetarlicha omilkor choralar ko’rilmayotgani natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun kredit resurslarini ajratishda muammolar yuzaga kelmoqda.

*Inflyatsiyani samarali nazorat qilish bo’yicha qiyinchiliklar* Inflyatsiya darajasini samarali boshqarish bo’yicha qo’llanilayotgan monetar siyosat choralarning natijadorligi pastligi, pul massasini nazorat qilish vositalarining yetarli darajada ishlamasligi kuzatilmoqda.

Yuqoridagi natijalar va muammolarni hisobga olgan holda, O’zbekiston sharoitida monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish bo’yicha normativ-huquqiy islohotlarni amalga oshirish va bank tizimida yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosat instrumentlaridan foydalanish orqali tijorat banklari likvidligini boshqarish va takomillashtirish bo’yicha amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

\* Tijorat banklari tomonidan likvidlikni samarali boshqarish imkoniyatlarining kengayishi natijasida pul bozoridagi qisqa muddatli depozit operatsiyalari hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu Markaziy bankning overnayt operatsiyalaridan doimiy foydalanish imkoniyati bilan bog’liq.

\* Pul-kredit siyosatining operatsion maqsadi sifatida pul bozorida 14 kungacha bo’lgan depozitlar bo’yicha foiz stavkalari Markaziy bankning asosiy stavkasiga yaqin darajada shakllanishi ta’minlandi.

\* So’nggi yillarda Markaziy bank qisqa muddatli pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanib, umumiy likvidlik darajasini tartibga solishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu operatsiyalar hajmi bank tizimidagi likvidlik holati va tijorat banklari tomonidan normativ talablarning bajarilish darajasiga bog’liq bo’ldi.

\* Bank tizimining kapitallashuv darajasining oshishi bank qarz kanalining umumiy bank faoliyatiga ta'sirini pasaytirdi. Shu bilan birga, ortiqcha likvidlikning yetarli emasligi tijorat banklarini Markaziy bankning pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgir qilib qo'ydi.

\* Monetar instrumentlarning tijorat banklari likvidligiga ta'siri kreditlar foizi va ularning muddati bo'yicha cheklanganligicha qolmoqda. Shuningdek, balans kanali samarali ishlashi uchun moliyaviy resurslarga muhtoj bo'lgan korxonalarining umumiy korxonalaridagi ulushi yetarlicha yuqori bo'lishi talab etiladi.

Umuman olganda, Markaziy bankning monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish va ularning tijorat banklari likvidligiga ta'sirini oshirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar muhim natijalar bergan bo'lsa-da, tizimda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Kelgusida, bank likvidligini yanada barqarorlashtirish va pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish uchun monetar siyosat mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

### **References (Foydalanilgan adabiyotlar)**

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr.

2. Ryan N., Banerjee, Hitoshi Mio. The impact of liquidity regulation on bank. Journal of Financial Intermediation Vol 35, Part B, July 2018, Pages 30-44.

3. Дж.Синки, М.Алтана Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрий финансовых услуг, пер. с англ.- Бизнес букс, 2007-1018 с.

4. Роуз П.С. Банковский менеджмент. М.: Дело-ЛТД. 1995.-743 с.

5. Philip Davis, E. (2009); Долан Э. Деньги, банковское дело и денежнокредитная политика. Пер.с англ. М: Кемпбелл, 1996-448 с;

6. Колесников В. и др. Банковское дело. М: «Финансы и статистика». 1995-480 с.

7. Панова Г. Кредитная политика коммерческого банка. М: МКЦ, 1997-464 с.

8. Усоскин В. современный коммерческий банк: управление и операции. М: Антидар, 1998-320 с.

9. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. М: «Консалтбанкир», 2003-272 с.

10. Лаврушин О. Банковское дело. Учебник. 2-е издание. М: Финансы и статистика, 2005-672 с.

11. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. - М.: Гелиос АРВ, 1999. Стр. 193.

12. Эдвин Дж. Долан, Колин Д.Кэмпбелл ва Розмари Дж. Кэмпбел. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Общая научная редакция кандидата экономических наук В.В.Лукашевича. Москва- Ленинград 1991, Промышленно-финансовая компания “Профико”. -446 с. Стр. -436.

13. Колесников В. И др. Банковское дело. М: “Финансы и статистика”. 1995-480 с;

14. Панова Г. Кредитная политика коммерческого банка. М: МКЦ, 1997-464 с.

15. Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции. М: Антидар, 1998-320 с;

16. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. М: “Консалтбанкир”, 2003-272 с;
17. Жарковская Е.П. Банковские дело. Учебник.-М.: 2006, Стр. 345-346.
18. Банковское дело. Учебник. Под редакцией О.И.Лаврушин, -М.:, 2005. Стр. -260.
19. Банковское дело: Управление и технологии. Учебное пособие для вузов. Под редакцией А.Тавасиева. -М.:, 2001. Стр. - 388.
20. Банковское дело. Учебник. Под редакцией В.И.Колесникова и Л.П.Кролевецкой. -М.: “Финанс и статистика”, 2002, Стр. -414.
21. Абдуллаева Ш. Пул ва банклар. -Т.; 2010.
22. Омонов А.А Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. Монография. “Фан ва технологиялари”, 2010, 43 бет.
23. Тавасаев А.М., Акимов О.М. Нужен ли независимый орган надзора за банковским сектором? //Банковское дело. 2004. №8 С.19.
24. Christa H.S. Bouwman. Liquidity: How Banks Create It and How It Should Be Regulated. Forthcoming in The Oxford Handbook of Banking (2nd edition; A.N. Berger, P. Molyneux, and J.O.S. Wilson (eds.))Case Western Reserve University and Wharton Financial Institutions Center October 2013. P. 2931.
25. Oscar Jorda, Bjorn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylor .Bank Capital Redux: Solvency, Liquidity, and Crisis. Federal Reserve bank of san Francisco working paper series. March 2017. P. 33-35.
26. Javier Bianchi Saki Bigio. Banks, liquidity management and monetary policy. National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 September 2014. Working Paper 20490 <http://www.nber.org/papers/w20490> P. 21-25.
27. Natacha Valla, Beatrice Saes-Escorbiac and Muriel Tiesset. Bank liquidity and financial stability,/Irving Fisher Committee on Central Bank Statistics/IFC Bulletin No 28. August 2008 P. 41-42.
28. Brynjolfsson E., Kabin B. Understanding Digital Economy: Data, Tools, and Research. Massachusetts, and London, England: The MIT Press, 2000. 408 p.
29. Johansson B., Karlsson Ch., Stough R. The Emerging Digital Economy: Entrepreneurship, Clusters, and Policy. Berlin: Springer Science & Business Media, 2006. 352 p.
30. Carlsson B. The Digital Economy: What is new and what is not? //Structural Change and Economic Dynamics. 2004/ # 15 (3). P. 245-264.
31. Натаниэль Поппер. Цифровое Золото. Невероятная история биткойна или о том, как идеалисты и бизнесмены изобретают деньги заново, 2016, 350 стр